

## XITOY TILIDA EKOTURIZM- 生态旅游 TERMININING SEMANTIKASI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.10364448>

Madinaxon SOBIROVA,

TDSHU 1-kurs magistranti, Toshkent, O'zbekiston.

Tel.: +998946698585; E-mail: rakhimovna.2211@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ekoturizm termini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Ekoturizm atamasining xitoy tilidagi manbalarga asoslangan holda, leksik ta`rifi berilib, uning paydo bo`lishi va hozirgi kunda qo`llanilish shakli haqida so`z boradi. Maqolani yozishdan maqsad- xitoy tilidagi ekoturizm va unga bog liq bo`lgan so`zlarni ma`noviy va shakliy jihatdan tahlil qilish. Ushbu maqola Xitoy tili va turizmi bo`yicha faoliyat olib boruvchilar uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.*

**Kalit so‘zlar:** ekologiya, turizm, tabiat, sayohat, atrof-muhit.

**Аннотация.** В данной статье анализируется термин экотуризм с теоретической и практической точки зрения. На основе источников на китайском языке дается лексическое определение термина экотуризм, а также обсуждается его этимологическое значение и форма употребления в наши дни. Цель написания статьи – проанализировать значение и семантическую форму термина экотуризм и родственных словах в китайском языке. Материал статьи может быть полезен для лиц, работающих в сфере туризма.

**Ключевые слова:** экология, туризм, природа, путешествия, окружающая среда.

**Abstract.** This article analyzes the term ecotourism from a theoretical and practical point of view. Based on sources in the Chinese language, a lexical definition of the term ecotourism is given, and it is discussed about its appearance and the form of its use today. The purpose of writing the article is to analyze the meaning and form of ecotourism in Chinese and related words. This article is theoretically important for Chinese language and tourism workers.

**Key words:** ecology, tourism, nature, travel, environment.

### KIRISH

Hozirgi kunda rivojlanib borayotgan mamlakatlarning turizm industriyası, asosan, tabiiy yoki ekologik turizm hisobiga amalga oshirilmoqda. Turizm so'zi

fransuz tilida tourisme- “sayohat qilish”, “dam olish” bo’lib shu bilan bir qatorda sport va umumtarbiyaviy yoki siyosiy-ma`rifiy vazifalarni bajarish degan ma`noni ham anglatadi.

Aleksandrova A.Y.[1] ma`lumotlari bo'yicha turizmdagi maxsus turlar quyidagilardan iborat:

1. Shahar turizmi.
2. Ishchanlik turizmi.
3. Qishloq turizmi.
4. Ekologik turizm.
5. Sport turizmi.
6. Ziyoratgoh turizmi.

Bu turlarni tahlil qilganimizda sport turizmi to'rtta turga ajratilgan:

- tog` sport- chang`i turizmi;
- golf turizmi;
- dayvin turizmi;
- ekstremal holatlardagi turizm.

Yuqoridagi turizm turlarini maxsus yoki asosiy deb ajratish xususiyatlarini topish qiyin. Ekologik, ziyoratgoh va sport turizmlari jahonda eng katta turistlar oqimini tashkil qiladigan turlar hisoblanadi. Golf, dayv turizmi va ekstremal turizm turlarini diniy, tarixiy, ekologik va sport turizmi turlariga tenglashtirib bo'lmaydi.

Ekoturizm, bir tomondan, turistik bozorda jadal o'sib kelayotgan tarmoq, ikkinchi tomondan esa insonning tabiatga ijobiy ta'siriga asoslangan tizim. Qolaversa, u turizm infratuzilmasining ajralmas qismi bo'lib, fagat g'oyagina emas, balki, umumiylar turizmning aniq turi, hisoblanadi. [2] Uning atrof-muhitga ta'siri turlicha (salbiy, neytral va ijobiy) bo'lishi mumkin. "Ekoturizm" qo'riqxona hududlari va tabiiy bog'larning zamonaviy ish yuritish faoliyatida keng qo'llanilmoqda. Bu sayohat turining dunyo miqyosida jadal o'sishiga sabab faqat atrof-muhitning ahvoli yomonlashishigina emas, balki, hordiq chiqariladigan mashhur joylar-tog' bag'ridagi kurortlar, suvi iliq dengizlarning qirg'oqlari, tekisliklar va o'rmonzorlar borgan sari ko'proq o'zlashtirilayotganligi hamdir.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ekologik turizm 1980-yillarning o‘rtalarida paydo bo‘lgan yangi tushunchadir. Ingliz tilidagi ushbu tushunchani akademik sohada birinchi bo'lib ishlatgan shaxs Maykl Romeril edi. Romeril bu atamani ishlatganda, u Gerardo Budovskining ekologiya va turizm o'rtasidagi ziddiyat haqida gapirgan maqolasidan ilhomlangan [3]. Aslida esa, meksikalik ekolog Seballos Lascurain 1980-yillarning boshida ispancha “ekoturismo” atamasini ishlatgan edi.[4] Turizm amaliyoti va menejmenti nuqtai nazaridan, Kanada o'rmon xo'jaligi xizmati 1973- yilda Trans-Kanada

avtomagistrali bo'ylab turizm usuli sifatida "ekotur" (ekoturizm) ni ilgari surdi. Shunga ko`ra, ushbu kontseptsianing yaratilish tartibi quyidagicha bo'lishi hisoblanadi: turizmning "ekoturizm" nomini aniq olgan shakli birinchi marta Kanadada paydo bo'lgan, birinchi marta akademik miqyosda paydo bo'lgan va Janubiy Amerika olimlari tomonidan ispan tilida ishlatilgan va keyin ingliz tilida. Ushbu kontseptsiyani birinchi bo'lib taklif qilgan olim Chebelos Laskarining so'zlariga ko'ra, ekoturizmning ta'rifi "nisbatan ekologik toza bo'lgan tabiiy hududlarga sayohat qiladigan turizm shakliga ishora qiladi.

"Ekoturizm" atamasi o'rniga ko'pincha boshqa atamalar, ya'ni, "tabiiy turizm", "barqaror turizm", "yashil turizm", "mas'uliyatli turizm" va "hayriya turizmi" kabi atamalar ham ishlatiladi.[5] Ba'zi unsurlari bir xil bo'lsa ham, Ular aslida bir-birining sinonimi hisoblanmaydi va biri ikkinchisining o'rini egallamaydi. Ekoturizm - tabiiy turizm (tabiatga sayohat) ning bir turi. U tabiiy turizmning ba'zi bo'laklarini, masalan, sarguzashtli turizm-otda sayr qilish yoki kemada suzish kabilarni o'z ichiga olishi mumkin. Ekoturizmning quyidagi ta'rifi ko'proq ishlatiladi: "Ekoturizm" tabiiy turizm bo'lib, tabiat muhitini hosil qilish va tushinishni o'z ichiga oladi. Uning menejmenti shunday amalga oshiriladiki, natijada bu faoliyat ekologik, ijtimoiy va madaniy jihatdan barqaror bo'lib, "tabiiy muhit" madaniy tarkiblarni, "ekologik barqarorlik" mahalliy aholi uchun tegishlicha daromadni va foydalanilayotgan resurslarning uzoq muddatli muhofaza qilinishini o'z ichiga oladi. "Ekologik turizm" tushunchasining alomatlaridan iloji boricha ko'prog'ini chugurroq tushunish uchun Zorin va V. Kvartalnov o'zaro bog'langan "ekotizim", "ekologiya", "ekologik sayohat etikasi" kabi tushunchalar tizimini taklif qilishadi [6] Ayniqsa, oxirgi tushuncha ahamiyatga molik. U jonli tabiatga, borilayotgan landshaftlarga, u yerda yashovchi kishilarga nisbatan hurmat kodeksi, deb sharhlanadi.

Xitoylik olim Ma Shijun fikricha, ekologiya tirik tizimlar va atrof-muhit o`rtasidagi o`zaro ta`sirini o`rganadi. Xitoy tilida ekoturizm atamasi 生态旅游 (shēng tài lǚ yóu) tarzida ifodalanadi. Bu qo'shma so'z bo'lib, xitoy tilida uning asosiy ma'nosi “ekologiya” 生态 (shēng tài )ga qaratilgan, Ekologiya so'zi birinchi marta 1869-yilda nemis biologi Ernest Gekkel tomonidan kiritilgan. U dastlab zoologiya sohasida bu atamani ishlatgan. “Ekologiya” so'zi dastlab nisbatan tor doirada ishlatilgan bo`lsa, keyinchalik mavzu chegaralarini yorib o'tib, fanlararo xalqaro toifaga aylandi. [7] Jumladan,

自然环境 (Zìrán huánjìng)- tabiiy muhit

大气污染 (dàqì wūrǎn)- havoning ifloslanishi

谁的循环 (shuí de xúnhuán) - suv aylanishi

土壤保持 (tǔrǎng bǎochí) - tuproqni saqlanishi

生物多样性 (shēngwù duōyàng xìng) - biologik xilma-xillik

城市问题 (chéngshì wèntí) - shahar muammolari

乡村问题 (xiāngcūn wèntí) - qishloq muammolari kabi ekologiyaga oid terminlarni uchratishimiz mumkin.

生态 (shēng tài) - atamasi quyidagi terminlar tarkibida kelishini ko'rishimiz mumkin:

生态区 (Shēngtài qū) - ekologik hudud

生态城市 (shēngtài chéngshì) - ekologik shahar

生态环境 (shēngtài huánjìng) - ekologik muhit

生态农业 (shēngtài nóngyè) - ekologik qishloq xo`jaligi

生态建设 (shēngtài jiànshè) - ekologik qurilish

生态保护 (shēngtài bǎohù) - ekologik muhofaza

生态旅游 (shēngtài lǚyóu) - ekoturizm

生态系统 (shēngtài xìtǒng) - ekosfera

生态学 (shēngtài xué) - ekologiya

生态工程 (shēngtài gōngchéng) - ekologik muhandislik

生态位 (shēngtài wèi) - ekologik joy

生态入侵 (shēngtài rùqīn) - ekologik bosqin

生态寿命 (shēngtài shòumìng) - ekologik hayot davomiyligi

生态效率 (shēngtài xiàolǜ) - ekologik samaradorlik

生态平衡 (shēngtài pínghéng) - ekologik muvozanat

生态因子 (shēngtài yīnzǐ) - ekologik omillar

生态幅 (shēngtài fú) - ekologik kenglik.

Turli adabiyotlarda Ekoturizm turlicha talqin qilinadi. Bizning dunyoqarashimizga yaqin bo'lgan Avstraliyaning Milliy ekoturizm Strategiyasida

ekoturizm — tabiatga yo‘naltirilgan turizm, deb ifodalangan. Ekologik barqarorlik qoidalaridan kelib chiqqan tarzda u o‘z ichiga ekologik ta’lim va tarbiyani qamrab oladi. Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi (TMQXI) ekoturizmni «atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, unga sayr qilganda «ayab» ta’sir ko’rsatish yo‘li bilan madaniy va tabiiy merosni o’rganish hamda zavqlanish nisbatan buzilm agan tabiiy hududlarga ekologik mas’uliyatli sayohat», deb tushuntiradi.[8]

### XULOSA

Shunday qilib, tor ma’noda ekoturizm — kishilarning tirik organizmlar yashaydigan muhitga sayohat qilishlari. Keng ma’noda esa ekoturizm — shaxslarning doimiy yashash joylaridan dam olish, sport bilan shugiullanish, sog’omlashish, ma’-rifiy-ma’naviy hamda umumtarbiyaviy ishlarni amalga oshirish yoki boshqa maqsadlarni ko’zlagan holda atrof tabiatga yoki muayyan tabiiy obyektlarga ekologik maqsadlardagi sayohatlari. Ekoturizm atamasining ma`noviy jihatni tahlili ostida bir nechta xulosalarga kelindi. Olimlarning ekoturizmga bergen turli ta`riflari yordamida uning tor va keng ma’noda qo`llanilishiga guvoh bo`ldik. Ekoturizmga oid atamalarni tarjima qilish jarayonida uning boshqa tillardagi ekvivalentlariga ham ahamiyat berish orqali uning o`zbek tilidagi eng to`g`ri variantini topish mumkin. Maqolada ko’rib chiqilgan terminlar asosida shuni aytish mumkinki, ekoturizmga oid terminlar asosan qo’shma so’zlar shaklida bo’ladi va odatda, o’z semantik ma`nosini saqlab qoladi. Shuningdek, bu terminlar xitoy tilida asosan 4ta iyeroglifdan iborat bo’lgan so’z shaklida bo’ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI (REFERENCES):

- [1] – Yabibulloxoii Muhammadsolih Alisher o’g’li. O’zbekiston ekoturizmini rivojlantirish yo’llari- Toshkent 2020. – 130 b.
- [2] – O ‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. — T.: «O’zME davlat ilmiy nashr.», 2004, 7-son. 428-b.
- [3] – A. Nig’matov. Ekologiya nima? — T.: «Turon-iqbol», 2005. 45 b.
- [4] – А.Б. Косолапое, Н.Г. Мизь. Экологический туризм в Приморском крае и работа гида на маршруте (методические рекомендации). — Владивосток, 2002.
- [5] – Дроздов А.В. Экотуризм: определения, принципы, признаки, формы / / Акт. пробл. туризма — 99. Перспективы развития туризма в южном Подмосковье. Сб. докл. и тез. сообщений науч.-практ. конф. М., 1999. с. 32 41.

